

UDK 639.3.043.

SIMMENTAL ZOTINING MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI

M. Nortasheva

Assistent

M.K.Narbayeva

dotsent

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15868749>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda xojaliklarda urchitilayotgan simmental zotining avlodlarini maxsuldorlik xususiyatlarini yuzaga chiqarish uchun olib borilgan ilmiy tadqiqon ishlari yorinilgan. Tadqiqotlarni o'tkazish uchun xo'jalikka keltirilgan birinchi tug'um yoshidagi toza zotli simmental sigirlardan 15 bosh 1-guruhga ajratilib olingan, II va III guruhlariga birinchi tug'imdagi bog'oz g'unojinlardan 15 boshlan 30 bosh qizlaridan (avlodlaridan) shakllantirilib koshimcha oziqlantirilgan.

Kalit so'zlar: ekin maydonlari, saqlash, asrash, parvarishlash, oziqlantirish, Simmental zoti, sog'in sigirlar, laktatsiya.

Kirish. Respublikamizda aholini sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda qoramolchilik etakchi soha hisoblanib, ishlab chiqarilayotgan sutning deyarli barchasi qoramollardan olinadi. Aholini arzon va sifatli sut va sut mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida keyingi yillarda bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Yngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida», «Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish, chorva mollari boshsonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish, aholi xonadonlaridagi 2,4 mln bosh (52 foiz) sigir va qochirish yoshidagi tanalarni sun'iy urug'lantirish, chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash, ozuqabop ekinlarning serhosil navlarini ko'paytirish, yil davomida 2-3-marta hosil olish va hosildorlikni 1,2 barobarga oshirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son “CHorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021 yil 3 martdagi PQ-5017-son “CHorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son “Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturi to'g'risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda amaliy dastur bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda muhim rejali zotlar tarkibiga sut yonalishidagi zotlardan golshtin va qoshmahsuldor zotlardan Simmental zotlari ham kiritilib barcha xo'jaliklarda urchitilib kelinmoqda.

Simmental sigirlarni saqlash ham kichik fermer xo'jaliklari, ham yirik korxonalar uchun juda foydali variant bo'lmoqda. Biroq, to'g'ri parvarish, oziqlantirish va sharoitlarini ta'minlash

juda muhimdir. Simmental sigirlari to'g'ri boqish bilan sifatli sut-go'sht ishlab chiqarishni va uzoq muddatli barqaror naslchilik modelini tashkil qiladi. Shu sababli, Simmental sigirlar chorvachilikda afzal ko'riladigan ishonchli zotdir.

Aholini chorvachilik mahsulotlari ya'ni sut-go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Qiziltepa hududida joylashgan “Bobur Murodaliyevich” hususiy fermer xo'jaligiga 2019 yilning dekabr oyida Germaniyadan 32 bosh simmental zotining bug'oz g'unoinlarini olib kelingan.

Sigirlarning sut mahsuldorligiga uning genotipi bilan birgalikda paratipik omillardan bo'lgan oziqlantirish va asrash sharoiti juda katta tasir ko'rsatadi. Laktatsiyaning dastlabki haftasida yangi tuqqan sigirlarda ozuqa iste'molining kamayishi va organizmda laktatsiya dominantasi deb ataluvchi holat tufayli ko'p miqdorda sut hosil bo'ladi hamda organizm barcha imkoniyatlarini sut hosil qilishga safarbar etadi. Natijada, organizmga kiruvchi va sut orqali chiquvchi to'yimli moddalar bo'yicha manfiy muvozanat yoki to'yimli moddalarning yetishmovchiligi yuz beradi va bu defitsitni sigir organizmdagi zahira moddalar hisobiga qoplaydi, oqibatda hayvon oriqlashi va tirik vaznining kamayishi kuzatiladi. Bu holat sigirning sog'lomligiga, hayotiy muhim organlarning, ayniqsa jigar faoliyatiga salbiy tasir ko'rsatadi, keyingi sut mahsuldorligining pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun sersut sigirlar ratsionini laktatsiya davrida oson hazm bo'luvchi, energiya va mineral moddalarga boy bo'lgan ozuqalar bilan boyitish sut mahsuldorligini yuqori darajada saqlab qolishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar: Ilmiy tadqiqot ishlari, zotning hususiyatlaridan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Qiziltepa hududida joylashgan “Bobur Murodaliyevich” hususiy fermer xo'jaligida olib borilmoqda. Xo'jalikda hozirgi vaqtda respublikamizning barcha viloyatlarida o'zining yo'qori mahsuldorligi va turli iqlim sharoitiga moslashuvchanligi bilan boshqa zotlardan ajralib turuvchi qo'shmahsuldor simmental zoti urchitib kelinmoqda. Maqsad sut va sut-go'sht yo'nalishidagi yaxshilovchi qoramolar bosh sonini ko'paytirish, mahaliy qoramollarning o'rnini to'ldirishdan iborat.

Tadqiqotlarni o'tkazish uchun xo'jalikka keltirilgan birinchi tug'um yoshidagi toza zotli simmental sigirlardan 15 bosh 1-guruhga ajratilib olindi, II va III guruhlariga birinchi tug'imdagi bog'oz g'unoinlardan 15 boshlan 30 bosh qizlaridan (avlodlaridan) shakllantirildi.

Birinchi guruh (nazorat) ga 15 bosh sigirlar kiritilib, ular xo'jalikda mavjud bo'lgan ozuqalardan tuzilib asosiy meyorlar bo'yicha muvozanatlashtirilgan ratsion (asosiy ratsion) bo'yicha oziqlantiriladi. II va III-tajriba guruhlargagi birinchi tug'um sigirlarini xo'jalik sharoyitini hisobga olgan holda iyyirish qo'shimcha ravishda ko'p va kam oziqa berish yo'li bilan amalga oshirildi.

Turli xil ekologik va genetik turdagi Simmental zoti g'unajinlarining iqlimiylashuvini o'rganish va iqtisodiy foydali xususiyatlarini baholash, shuningdek, birinchi tugum sigirlar ratsionida yangi ozuqa qo'shimchalarini qo'llash samaradorligini baholash chorvachilikda dolzarbdir.

Natijalar va ularning tahlili:

Hayvonlarning ozuqaviy ehtiyojlari ularning sog'lom o'sishi va mahsuldorligi uchun juda muhimdir. To'g'ri oziqlantirish hayvonlarning kasalliklarga chidamliligini oshiradi,

reproduktiv faoliyatini yaxshilaydi va sut-go'sht ishlab chiqarishni oshiradi. Yaxshi oziqlangan hayvonlar veterinariya aralashuvini kamroq talab qiladi va fermaning rentabelligini oshiradi.

Podaga ko'p miqdorda birinchi tuqqan sigirlarni kiritish, undagi kam mahsul va yaroqsiz bo'lgan sigirlarni brak qilish, poda mahsuldorligini kotarishni ta'minlaydi. Har 10 % brak qilingan sigir hisobiga sut sog'imi 60-140 kg dan oshadi. Sigirlarni birinchi laktatsiya davrida brak qilish ularni kelib chiqishga qarab tanlashga ko'ra samaraliroqdir.

Tajriba uchun ajratilgan sigir tuqqanidan so'ng 0,5-1,0 soat o'tgach qo'shilgan 4-5 litr atala berildi, Sigirning 3 kun davomida sifatli pichan pichan bilan oziqlantirildi. Oziqalar miqdori sigir yelinini holatiga qarab 10-15 kun ichida ular to'liq me'yordagi rasionga o'tkazildi. Agar bu muddatdan oldin to'liq rasionga o'tkazilsa, oziq hazm qilish organlarida va sut bezlarida noxush asoratlar qolishi mumkin.

Sigir tuqqanidan 40-50 minut o'tgach, uning yelinini yuvib, quruq sochiq bilan artib dastlabki- sut tomchilari sog'ib ajratildi va shu sutda namuna sifatida mastit kasalligini bor-yo'qligi tekshirib ko'rildi. Birinchi sog'ilgan sut (og'iz sutini) alohida sog'ib tashlandi, chunki u bakteriyalar bilan ifloslangan bo'ladi.

Endi tuqqan sigirlarni kunlik suti 6-8 litr bo'lganligi uchun kunlik rasioni tarkibida 8,0 oziqa birligi, 840 g hazmlanuvchi proteinni tashkil qildi. Sigirlar tuqqanidan so'ng dastlabki 2-3 oy davomida oziqlantirishni yaxshilash bilan sigirlarni sut mahsuddorligini ko'paytirish (iydirish) eski usullardan hisoblanadi. Ammo bu usul hayvonlarni irsiy va fiziologik imkoniyatlarini ochish imkonini beradi. Qoramollarni ko'p zotlari naslchilik ishlarini iydirish usuli bilan uyg'unlashtirish natijasida yaratilgan. Masalan 1930 yillarda Kostroma qoramol zotini yaratishda S.I.Shteyman, sigirlarni oziqlantirishni yaxshilash va iydirishni to'g'ri o'tkazish yo'li bilan 3 yil ichida sut mahsuldorligini 3000 kg dan 6000-6300 kg gacha oshirgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Tajribadagi sigirlarni iydirish (sutini ko'paytirish) ularni tug'riqxonadan chiqqanidan so'ng boshlandi (tuqqanidan 15-16 kunigan so'ng). Iydirishni ma'nosi sigir asosiy rasioniga qo'shimcha ravishda oziqa iste'mol qilib, sutini ko'paytirishi hisoblanadi. Uning asosiy elementlari bo'lib; to'liq qimmatli oziqlantirish, to'g'ri sog'ish, yelinini uqalash va yaxshi saqlash hisoblanadi. Sigirlarni Iydirish 2-2,5 oy davom etdi.

Xulosa. Oziqlantirish texnikasi va hayvonlarning oziqlanishi qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohasida fermer xo'jaliklarini muvaffaqiyatli boshqarish uchun juda muhimdir. To'g'ri oziqlantirish va oziqlantirish dasturlarini qo'llash orqali hayvonlarning salomatligi va mahsuldorligini oshirish, fermer xo'jaligining rentabelligi va barqarorligini ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5017-sonli qarori. Toshkent. 2021 yil 3 mart.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4576-son “Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2020 yil. 29.01.
3. 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son “Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturi to'g'risida”gi qaror.

4. U.N.Nosirov. Qoramolchilik. Toshkent.2021.170-171 b.
5. Л.П. Игнатъева Характеристика современной популяции крупного рогатого скота симментальской породы России. Ж. Пермский аграрный вестник №4 (36) 2021. 100-106 с.